

INTRODUKSIYA SHAROITIDA LAVANDA (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA MILL NING SUTKALIK GULLASH DINAMIKASI

J.Ch.Mengto'rayev¹, G.I.G'aniyeva²

¹ TerDU 2-kurs magistranti, ² 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585126>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 24- may 2022

KALIT SO'ZLAR

*Lavandula
angustifolia, zigomorf,
sutkalik gullash maromi*

ANNOTATSIYA

Lavandula angustifolia o'simligining introduksiya sharoitida reproduktiv biologiyasi sutkalik gullash maromi o'rganildi. Olingan ilmiy-amaliy natijalarga asoslanib, o'simlikning Surxondaryo viloyati iqlim sharoitida introdusent L.angustifolia tuplari ikkinchi yildan generativ davrga o'tdi. Havo harorati va nisbiy namlikning o'zgaruvchanligi gullash dinamikasiga ta'sir qilish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Hozirgi davrda o'simliklar introduksiyasining ahamiyati kamaymasdan, balki sayyoramiz o'simliklari resurslarini o'zlashtirishning yangi istiqbollarini ochib bermoqda. Xususan 26.11.2020 yildagi «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4901-son qarorlarning qabul qilinishi sohaga bo'lgan e'tiborning yorqin dalilidir [1]. Ilmiy izlanishlarimizda rejalashtirilgan tadqiqotlar dorivor lavanda (*Lavandula angustifolia*.) ning Surxondaryo iqlim va tuproq sharoitida introduksiyasi va iqlimlashtirilishi hisoblanib, ushbu dorivor, oziq ovqat, parfumeriya va nektarbop o'simlikni mahaliy sharoitda ko'paytirish usullari va ontogenez bosqichlarini o'rganish maqsad qilingan. Asosiy qism: O'simlikning sistematikasi. Dorivor yoki

haqiqiy lavanda (*Lavandula angustifolia-officinalis* L.), Lavanda (*lavandula*) turkumi, Yalpizdoshlar oilasiga mansub yarim buta o'simlik. O'simlikning tarqalishi. Lavandaning vatani – O'rta yer dengizi. Tabiatda lavanda O'rta yer dengizi qirg'oqlarining ensiz mintaqalaridan Old Hindistongacha bo'lgan masofalarda o'sadi. Lavandaning yuqori sifatli turlari dengiz sathidan 700 dan 1400 metrgacha balandlikda o'sadi. Yevropada, Shimoliy va Janubiy Afrikada, Osiyoning tog'li va tropik tumanlarida, Amerika va Avstraliyada keng tarqalgan [5]. Rossiyada lavandaning paydo bo'lish tarixi XVIII asrning 30-yillarida Buyuk Pyotr Sank-Peterburgda botanika bog'ini tashkil qilgan paytdan boshlanadi. O'zbekistonda lavanda 1930-yilda Suxumi botanika bog'idan olib kelingan va olib kelingan ko'chatlar SAGU botanika bog'ida ekilgan. Hozirda Toshkent botanika bog'ining "Dorivor o'simliklar laboratoriyasi" da o'stiriladi [5].



Ahamiyati. Dorivor lavanda o'simligi Yevropa davlatlarida keng ommalashgan bo'lib, faqat kosmetologiya va farm sanoati uchun emas, aholini yashash joylarini obodonlashtirishda, bog'-parklar qurulish arxitekturasida foydalaniladi. Xalq tabobatida keng qo'llaniladi [6]. Lavandula angustifolia-officinalis Bitta tupida 40 dan 700 tagacha va hatto 1000 tagacha gul bo'ladi. Gulto'plami 4-12 boshqochali, bir-biriga qarama-qarshi joylashgan. Har bitta to'pgulda 7 tadan 20 tagacha gul bo'ladi. Rangi oq, nafarmondan ko'k binafsha ranggacha yoki to'q binafsharang. Gullari mayda, ikki jinsli, zigomorf. Gulkosachasi naysimon, uzunasiga qovurg'ali bo'lib, ko'plab tuklar bilan qoplangan. Chuqur qovurg'alari orasida efir moylari bo'ladi. Gulto'ji oq yoki to'q binafsharang, trubkasimon, ikki labli, gullab bo'lgach to'kilib ketadi. Changdon 4, yuqori qismi


bog'langan, 4-uyali. Bir vaqtda gullari gullamaydi, avval boshqoqning pastki birinchi yoki ikkinchi va oxirida yuqoridagilari gullaydi [4].

Surxondaryo iqlim sharoitida introdusent o'simligimiz 5.04.22 da g'unchalay boshladi. 1-tup o'simligimizda 105 ta, 2-tupda 116 ta va 3-tupda 89 ta boshqoq hosil bo'ldi. Ilk gullari 9.05.22 da ochildi. Sutkalik gullash dinamikasi o'rganish uchun A.N. Ponamarev,

O.A. Ashurmetov, X.Q. Qarshibayev metodlari bo'yicha 19.05.22 da olib borildi, ya'ni 3 ta o'simlik tanlab olinib, soat 6 dan 18 gacha har bir tupdagi ochilgan gullar soni hisoblandi. Olingan natijalar asosida o'simlikning eng ko'p gul ochilgan vaqti 6 da va 18-00 va 19-00 ga to'g'ri keldi. [2]

18 00 dan so'ng o'simlikdan efer moylari ajralishi kuchayishi sabab, shu vaqtda o'simlik atrofida hashorotlar ko'paydi.

Soat		08:00	10:00	12:00	14:00	16:00	18:00
/tup	06:00						
1-tup	70	23ta	7	5 ta	10 ta	17ta	40ta
2-tup	74a	37ta	9	21ta	15 ta	31ta	51ta
3tup	54a	10ta	5	5ta	7 ta	23 ta	38ta



1.1-jadval. Lavandula angustifolia Mill sutkalik gullash maromi SHunday qilib, Lavandula angustifolia Mill ning ikkinchi vegetatsiya davridagi o'simliklarda sutkalik gullash dinamikasi

o'rganildi. Surxondaryo sharoitida sutka davomida ko'p miqdordagi gullarning ochilishi esa soat 6 dan 8gacha va 18 bo'lgan vaqtda kuzatildi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 26.11.2020 yildagi «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4901-son qaror.
2. Begmatov A.M, Sharipov A.E „Surxondaryo viloyati sharoitida introduksiya qilinayotgan STEVIA REBAUDIANA BERTONI ning ekologik xususiyatlari. Qarshi “Nasaf” nashriyoti 2019 .64-b
3. Dospexov B.A.. Методика полевого опыта. - М.: Агропромиздат, 1985. - С. 9-23.
4. Longe, J. L. 2005. Muqobil tibbiyotning Geyl entsiklopediyasi. Farmington Hills, Mich: Tomson/Gale.
5. To'xtayev B.Yo., Xomidov J.J., Safarov I.B. To'xtayev B.Yo. Farg'ona vodiysi iqlim va tuproq sharoitida dorivor lavanda (Lavandula officinalis.) ni ko'paytirish usullari. 2019
6. www.google.ru LAVANDA.